

KAFEDRA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARI

O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan hayot falsafasi va urf-odatlarida yoshlarga e'tibor, ularning sog'lom va komil inson bo'lib voyaga yetishiga g'amxo'rlik qilish g'oyasi markaziy o'rin egallaydi. Shu tamoyil asosida "Lotin tili, pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'z faoliyatida talabalarning ma'naviy kamolotini ta'minlash, ularni ijtimoiy faol, bilimli va milliy qadriyatlarga sadoqatli shaxslar etib tarbiyalashni bosh maqsad qilib olgan.

Kafedrada ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlar tasdiqlangan yillik reja asosida tizimli ravishda amalga oshiriladi.

Tadbirlar rejasida ma'naviy tarbiya, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ijtimoiy faollikni kuchaytirish kabi yo'nalishlar asosiy o'rinni egallaydi.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotidagi yangiliklarni tahlil qilish, Prezident Sh.M. Mirziyoyev nutqlari va davlat dasturlarining mazmunini talabalarga tushuntirish;
- Yoshlarda milliy g'urur, vatanparvarlik, insoniylik va mehr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlash;
- Talabalarning axloqiy madaniyatini yuksaltirish, odob, muomala, kiyinish va so'zlashuv madaniyatini shakllantirish;
- Chekish, spirtli ichimliklar, giyohvandlik kabi illatlarga qarshi profilaktik suhbatlar tashkil etish;
- "Til va madaniyat", "Yosh kitobxon", "Sog'lom hayot sari" kabi mavzularda uchrashuvlar, ochiq muloqotlar, davra suhbatlari o'tkazish;
- Talabalar o'rtasida ijtimoiy loyihalar, to'garaklar, viktorinalar, ijodiy kechalar orqali bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishni yo'lga qo'yish.









Prezident tashabbuslari va dolzarb mavzular doirasida ishlar:

Institutning Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi topshirig'iga asosan kafedra o'qituvchilari tomonidan quyidagi mavzularda targ'ibot-tashviqot ishlari olib boriladi:

- ““O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Murojaatnomasi — yangi taraqqiyot bosqichi sari qadam”;
- “Yoshlar va sog‘lom turmush tarzi”;
- “Zararli odatlarga qarshi kurash — sog‘lom jamiyat garovi”;





Sogʻlom turmush tarzi va jismoniy madaniyat:

Kafedra faoliyatida talabalarni sogʻlom hayotga yoʻnaltirish, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlashga qaratilgan ishlar alohida oʻrin tutadi.

Oʻqituvchilar tomonidan:

- “Sogʻlom tana — sogʻlom aql” shiori ostida sport tadbirlari va mashgʻulotlar oʻtkaziladi;
- OITSga qarshi kurash kuni doirasida maʼrifiy uchrashuvlar tashkil etiladi;
- “Yomon odatlarga yoʻq deylik!” mavzusida profilaktik targʻibot videolari va stendlar tayyorlanadi;
- Biriktirilgan maktablarda oʻquvchilar uchun sogʻlom ovqatlanish, psixologik barqarorlik, dam olish madaniyatiga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.





